

## TARJIMA JARAYONIDA KONNOTATIV MA’NONI SAQLASH MUAMMOLARI

**Erkinova Shahlo G‘ofur qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat*

*O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti,*

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi*

[erkinovashahlo6@gmail.com](mailto:erkinovashahlo6@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjimada konnotativ ma’noni saqlash muammolari tahlil qilinadi. Muallif so‘zning lug‘aviy – denotativ va hissiy-baholovchi – konnotativ qatlamlari o‘rtasidagi farqni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritib, kontekst, madaniyat va stilistik omillar konnotativ ma’noning tarjimada yo‘qolishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada konnotativ ma’noni saqlash yo‘llari – mazmuniy ekvivalentlik, kompensatsiya, izoh va kontekstga moslashuv – tavsiya etiladi. Tarjima faqat ma’no yetkazish emas, balki matn ruhini va madaniy rangini ko‘chiradigan jarayon ekanligi ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *konnotatsiya, denotativ ma’no, hissing ohang, madaniy tafovut, ekvivalentlik, tarjimon kompetensiyasi.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются проблемы сохранения коннотативного значения в переводе. Автор раскрывает различие между лексическим (денотативным) и эмоционально-оценочным (коннотативным) уровнями значения с точки зрения лингвистики, а также показывает, как контекст, культурные особенности и стилистические факторы могут привести к утрате коннотативных оттенков при переводе. Кроме того, предлагаются стратегии сохранения коннотативного смысла — содержательная эквивалентность, компенсация, пояснения и адаптация к контексту. Подчёркивается, что перевод — это не только передача смысла, но и перенос духа текста и его культурной окраски.*

**Ключевые слова:** *коннотация, денотативное значение, эмоциональный оттенок, культурные различия, эквивалентность, переводческая компетентность.*

**Annotation:** *This article examines the challenges of preserving connotative meaning in translation. The author explains the linguistic distinction between the lexical (denotative) and emotional-evaluative (connotative) layers of meaning and demonstrates how context, cultural factors, and stylistic nuances can lead to the loss of connotation in translated texts. The article also outlines several strategies for maintaining connotative meaning, including semantic equivalence, compensation, explanatory translation, and contextual adaptation. It*

*emphasizes that translation is not merely the transfer of meaning but process of conveying the text's spirit and cultural coloring.*

**Keywords:** *connotation, denotative meaning, emotional tone, cultural differences, equivalence, translator competence.*

Bugungi globallashuv sharoitida tarjima insonlar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Turli millat va xalqlar o'rtasidagi muloqot ko'p hollarda tarjima orqali amalga oshiriladi. Shu sababli tarjima endilikda faqat til vositasi emas, balki madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi murakkab jarayon sifatida qaralmoqda. Har bir tilda nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosi, balki uning ortida yashiringan hissiy, baholovchi va madaniy qatlam ham mavjud bo'lib, aynan shu qatlam konnotativ ma'no orqali namoyon bo'ladi.

Tarjimada konnotativ ma'noni to'liq saqlab qolish tarjimon oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir. Chunki konnotatsiya so'zning tashqi shaklida emas, balki uning ruhiy, ijtimoiy va madaniy mazmunida mujassamlashgan bo'ladi. Agar tarjimada aynan shu jihat e'tibordan chetda qolsa, asarning badiiy ta'siri susayadi, muallifning pozitsiyasi buziladi va o'quvchi matnni to'liq his qila olmaydi.

Tilshunoslikda so'z ma'nosi ikki asosiy qatlamga ajratib o'rganiladi. Birinchi qatlam denotativ ma'no bo'lib, u so'zning predmet yoki hodisaga to'g'ridan-to'g'ri ishorasini bildiradi. Ikkinchi qatlam esa konnotativ ma'no bo'lib, u so'zga qo'shimcha bo'lgan hissiy, baholovchi, uslubiy va madaniy ranglarni o'z ichiga oladi. "So'zning asosiy lug'aviy ma'nosidan tashqari, uning hissiy, madaniy va baholovchi qo'shimcha ma'nolari ham bo'ladi. Tarjima jarayonida aynan shu yashirin qatlam ko'pincha yo'qolib qoladi" (Nida, 1975).

Konnotativ ma'no bevosita xalqning madaniyati, urf-odati, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli ham bir tildagi konnotatsiya ikkinchi tilda mutlaqo boshqa ma'noni berishi yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. "Konnotatsiya ko'pincha milliy madaniyat bilan bo'g'liq bo'lib, uni boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish deyarli imkonsiz holatga kelib qoladi" (Newmark, 1988). Masalan, ingliz tilidagi "black sheep" iborasi salbiy konnotatsiyaga ega bo'lib, "oiladagi uyatli, obro'siz shaxs" ma'nosini bildiradi. Uni so'zma-so'z "qora qo'y" deb tarjima qilish mazmunni ochib bera olmaydi. O'zbek tilida bu konnotativ ma'no "oilaga dog' tushirgan odam", "nomiga isnod keltirgan shaxs" kabi izohli yo'l bilan beriladi. Konnotatsiya faqat alohida so'zga emas, balki iboralar, frazeologizmlar, metaforalar, kinoya va ramziy ifodalarga ham xos bo'ladi. Bu esa tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Tarjima faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanmay, balki matnning ruhiy va estetik ta'sirini ham qayta yaratishi lozim. Aynan konnotativ ma'no ushbu vazifani bajarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Agar tarjimon faqat denotativ ma'noni ko'chirsa, matn mazmunan to'g'ri bo'lsa-da, ruhiy jihatdan zaif bo'lib qoladi.

Badiiy asarlarda qahramon xarakterini ochishda, muallifning dunyoqarashini ifodalashda, voqealarning keskinligini ko'rsatishda konnotativ ma'no muhim rol o'ynaydi. Publitsistik matnlarda esa ijtimoiy baho, tanqid yoki targ'ibot aynan konnotatsiya orqali kuchaytiriladi. Og'zaki nutqda esa so'zlovchining hissiy holati, kayfiyati va muomala uslubi konnotativ birliklar orqali ifodalanadi. Shu sababli tarjimada konnotativ ma'noni e'tibordan chetda qoldirish matnning ma'no qatlamini bir tomonlama talqin qilishga olib keladi.

Tarjima jarayonida konnotativ ma'noni saqlash ko'plab murakkabliklar bilan kechadi. Bu murakkabliklar birinchi navbatda tillar ortidagi madaniyatlar turlicha ekanligi bilan bog'liq. Har bir til o'z xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlar, ijtimoiy me'yorlari va psixologiyasini o'zida aks ettiradi. Shu sababli bir tildagi konnotatsiya boshqa tilda aynan o'sha shaklda ifodalanmasligi mumkin. Badiiy asarlarda ham konnotativ ma'no katta ahamiyatga ega. Chunki badiiy matn faqat voqeani emas, balki muallifning hissiy pozitsiyasini, obrazlarning ichki kechinmalarini va muhit rang-barangligini ham ifodalaydi. Agar tarjimon konnotativ qatlamni e'tibordan chetda qoldirsa, asarning estetik qiymati sezilarli darajada pasayadi (Venuti, 1995). Masalan, F. Scott Fitzgeraldning *The Great Gatsby* romanidagi mashhur ibora: "Gatsby believed in green light, the orgastic future that year by year recedes before us." So'zma-so'z tarjima qilinsa: "Gatsby yashil nurga, yil sayin bizdan uzoqlashib boradigan kelajakka ishondi", lekin bunday tarjima roman konnotatsiyasidagi umid, sog'inch va romantic idealism hissiy qatlamini yetarlicha bermaydi. Shu sababli, badiiy tarjimada "Gatsby yashil nurni va har yili uzoqlashib boradigan orzu kelajagini ishonch bilan kutdi" kabi tarjima konnotativ ma'noni saqlaydi. Ko'pincha bir tilda ijobiy bahoga ega bo'lgan so'z boshqa tilda salbiy tusda qabul qilinadi yoki aksincha. Bu hol tarjimada mazmunning buzilishiga olib keladi. Tarjimon bunday vaziyatda so'zning tashqi ko'rinishiga emas, balki uning nutqdagi vazifasiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Yana bir muhim muammo hissiy rangning yo'qolib ketishidir. Asl matndagi hayajon, kinoya, tahqir, mehr yoki achinish tarjimada neytrallashib qolishi mumkin. Bu ayniqsa hissiy jihatdan boy bo'lgan dialoglar tarjimasida ko'p uchraydi. Natijada qahramon nutqi jonlilikdan mosuvo bo'ladi. Uslubiy nomuvofiqlik ham konnotativ ma'noning yo'qolishiga olib keladi. Og'zaki nutqqa xos jonli ifodalar rasmiy yoki betaraf leksika bilan almashtirilganda matnning tabiiyligi buziladi. Bu esa o'quvchining asarni qabul qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy mentalitet bilan bog'liq birliklar esa tarjimada eng murakkab qatlam hisoblanadi. Maqollar, iboralar, xalqona kinoyalar, ramziy ifodalar ko'pincha milliy madaniyat bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Ularni boshqa tilda xuddi o'zidek berish deyarli imkonsiz. Bunday hollarda tarjimon mazmuniy moslikni saqlagan holda mutlaqo boshqa vosita orqali konnotativ ma'noni yetkazishga majbur bo'ladi. Kontekstning to'liq anglanmasligi ham konnotativ ma'noning noto'g'ri tarjima qilinishiga olib keladi. Bir so'z ayrim vaziyatda oddiy betaraf ma'noda kelishi mumkin, biroq boshqa kontekstda u keskin baholovchi yoki kinoyali tus kasb etadi. Tarjimon kontekstni chuqur tahlil qilmasa, bu nozik farqlar e'tibordan chetda qolishi mumkin. Masalan, Amerika ingliz tilidagi "Bless your heart" iborasi tashqi ko'rinishda mehribonlik yoki xayrixohlik bildirayotgandek tuyuladi, ammo ko'pincha u achinish, kinoya yoki mayin masxara ma'nolarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, She truly believed all his lies — bless her heart jumlasida bu ibora shunchaki rahm qilish emas, balki biroz istehzo aralash soddalikni ta'kidlash vazifasini bajaradi. Uni so'zma-so'z "Yuragi barakali bo'lsin" tarzida o'girish mazmunni butunlay buzib qo'yadi. Konnotativ ma'noni saqlagan holda esa "Bechora, qanchalik sodda ekan" yoki "Eh, soddaligini qara" kabi variantlar mazmunga ancha yaqinlashadi.

Badiiy tarjimada konnotativ ma'noni to'liq saqlamaslik asarning estetik qiymatiga sezilarli darajada zarar yetkazadi. Chunki asl matndagi obrazlarning xarakteri noto'g'ri talqin qilinishi, muallif yaratgan stilistik ohang buzilishi mumkin. Natijada o'quvchi tarjima matnini o'qir ekan, muallif ko'zlagan estetik zavqni to'liq his qilolmaydi. Ba'zan konnotativ ma'nodagi xatolar asarning falsafiy qatlamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kinoya yoki istehzo betaraf ifoda bilan almashtirilsa, muallifning pozitsiyasi kuchaymay, aksincha, o'z ta'sirini yo'qotadi. Qahramonning ijtimoiy mavqeini ifodalovchi nutqiy detallar yo'qolib ketishi esa obrazning badiiy tabiati buzilishiga sabab bo'ladi. Shu kabi holatlar tarjimani faqat axborot yetkazuvchi vositaga aylantirib qo'yadi, holbuki badiiy tarjima estetik hodisa sifatida qadrlanishi lozim.

Konnotativ ma'noni aniq va tabiiy tarzda yetkazish tarjimonning til bilimidan tashqari, uning badiiy tafakkuri bilan ham chambarchas bog'liq. Tarjimon matnga oddiy axborot sifatida emas, balki estetik yaxlitlik sifatida yondashishi zarur. Har bir so'z ortidagi hissiy, madaniy va baholovchi yukni sezish — tarjimonning haqiqiy kasbiy saviyasini belgilaydi. Tarjimon boshqa tilga nafaqat ma'lumotni, balki muallifning ruhiy holatini, estetik qarashini ham ko'chira olishi kerak. Buning uchun u nafaqat ona tilini, balki tarjima tilining madaniy qatlamini ham chuqur bilishi lozim. Aks holda konnotativ birliklar yuzaki tarjima qil'inib, matnning ichki ruhi sezilmay qoladi.

Tarjima amaliyotida konnotativ ma'noni saqlash uchun bir qator strategiyalar qo'llanadi. Eng avvalo, mazmuniy ekvivalent topish muhim: tarjimon so'zning tashqi shakliga emas,

uning nutqdagi hissiy va baholovchi vazifasiga e'tibor qaratadi va boshqa tilda shunga mos birlikni izlaydi. Ayrim hollarda konnotatsiyani aynan yetkazishning imkoni bo'lmaydi. Bunday vaziyatda kompensatsiya usuli qo'llanadi. Ya'ni yo'qolgan hissiy rang matnning boshqa qismida boshqa vosita bilan qoplanadi. Bu ayniqsa badiiy tarjimada katta ahamiyatga ega. Ba'zan izohli tarjima ham qo'llanadi. Milliy-madaniy tusga ega birliklarni izoh bilan tushuntirish ilmiy va publitsistik tarjimalarda ko'proq uchraydi. Eng muhim tamoyil esa - kontekstga tayanish. So'zning lug'aviy ma'nosidan ko'ra, uning umumiy matndagi vazifasi asosiy mezon sifatida olinadi.

Konnotativ ma'no bevosita madaniyatga bog'langanligi sababli, uni saqlash jarayoni madaniyatlararo muloqotning muhim qismi hisoblanadi. Tarjimon ikki madaniyat o'rtasida vositachi bo'lib, bir madaniyatga xos tasavvurlarni boshqasiga to'g'ri yetkazishi kerak. Shu bois tarjimon nafaqat lingvist, balki madaniyatshunos sifatida ham faoliyat yuritadi. Agar konnotativ ma'no to'g'ri uzatilsa, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish kuchayadi. Aks holda noto'g'ri talqinlar yoki madaniy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Konnotativ ma'noni saqlash - tarjima nazariyasi va amaliyotining eng muhim muammolaridan biridir. Chunki konnotativ qatlam matnning emotsional, estetik va baholovchi jihatlarini belgilaydi. Uni e'tiborsiz qoldirgan tarjima mazmunan to'g'ri bo'lishi mumkin, ammo ruhiy ta'siri sust bo'ladi. Demak, haqiqiy badiiy tarjima bu faqat til almashtirish emas, balki madaniyat va ruhiyatni bir makondan boshqasiga ko'chirish jarayonidir. Konnotativ ma'noni saqlagan tarjimagina badiiy va madaniy qiymatga ega bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
3. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995. – 353 p.
4. Mamarasulova, Gulnoz. "THE INFLUENCE OF ORIENTAL LITERATURE ON ENGLISH POETRY AND PROSE." Nordic\_Press 8.0008 (2025).
5. Obidjonova M. (2021). Genre features of science fiction, fantasy, and “fantastika” in some short stories of Ray Bradbury and Hojiakbar Shaykhov. Theoretical & Applied Science, 110–115.
6. The Challenges of Translating Connotative Meaning between English and Uzbek // Translation Journal. – 2023. – URL: <https://translationjournal.net> (kirish vaqti: 04.12.2025).

7. Asadov, M. (2022). A comparative study of the image of sisyphus in western and uzbek literature.

8. Connotative Meaning in Translation: Problems and Strategies // ResearchGate. – 2022. – URL: <https://www.researchgate.net> (kirish vaqti: 04.12.2025).

9. Cultural Aspects in Translating English Connotative Words into Uzbek // Academia.edu. – 2021. – URL: <https://www.academia.edu> (kirish vaqti: 04.12.2025).

10. Linguistic and Cultural Equivalence in Translation // Semantic Scholar. – 2022. – URL: <https://www.semanticscholar.org> (kirish vaqti: 04.12.2025)